

**OZODLIK DAN MAHRUM QILISH BILAN BOG‘LIQ BO‘LMAGAN AYRIM
JAZO TURLARINI TAYINLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH VA
XORIJ TAJRIBASI**

Ruziyev Ma’rufjon Murtazayevich

jinoyat ishlari bo’yicha Bulung’ur tuman

sudining tergov sudyasi,

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universitetining

mustaqil izlanuvchisi

Annatatsiya: *Tadqiq etilayotgan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazo turlarini tayinlash mexanizmini tubdan isloh qilish va milliy qonunchilikdagi yuridik bo‘shliqlarni bartaraf etish xorijiy davlatlarning ilg‘or kodifikatsiya qilingan tajribasini qiyosiy tahlil qilishni taqozo etadi. G‘arb va Sharq huquqiy tizimlarida jarima, muayyan huquqdan mahrum qilish va majburiy jamoat ishlari jazolarining huquqiy tabiati va qo‘llanilish mezonlari o‘ziga xos mazmunga ega.*

Kalit so‘zlar. *jazoni individuallashtirish, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolar, muqobil jazo choralari, axloq tuzatish ishlari, majburiy jamoat ishlari, jarima jazosi, probatsiya nazorati, jinoiy javobgarlik, jazo tayinlash mexanizmi,*

KIRISH

Germaniya Jinoyat kodeksi (StGB) 40-paragrafi va Fransiya Jinoyat kodeksining 131-5-moddasi tizimida jarima jazosini tayinlashning an’anaviy mutlaq raqamlarga (masalan, milliy tizimimizdagi BHM baravariga) asoslangan mexanizmidan butunlay voz kechilgan. Ushbu davlatlarda “Kunlik baho” (Geldstrafe / Jour-amende) tizimi amal qiladi. Bu tizimga ko‘ra, sud jarima tayinlashda ikki bosqichli matematik algoritmgga tayanadi:

Birinchi bosqich: Qilmishning og‘irligi va aybning darajasiga qarab kunlar soni belgilanadi (masalan, 10 kundan 360 kungacha).

Ikkinchi bosqich: Aybdorning real kunlik sof daromadi (soliqlar va minimal oilaviy xarajatlar chegirilgan holda) hisoblab chiqiladi.

Agar boy shaxsga ham, kambag‘al shaxsga ham bir xil jinoyat uchun

30 kunlik baho tayinlansa, boy shaxs o‘z daromadidan kelib chiqib 30 000 yevro, kambag‘al shaxs esa 300 yevro to‘laydi. Natijada, jazoning “kara” (mahrumlik) effekti har ikkala shaxs uchun ijtimoiy jihatdan teng va adolatli bo‘ladi.

Germaniya va Fransiyaning “kunlik baho” (Day-fines) tizimi xalqaro penologiyada (xususan, professor A.V.Brilliantov asarlarida) sof jinoiy-huquqiy adolat mezoni sifatida ijobiy baholansa-da, ushbu tizimni MDH makoniga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish ma’lum amaliy ziddiyatlarni yuzaga keltiradi.

Xorijlik olim, professor T.V.Nepomnyashaya o‘z tadqiqotlarida haqli ravishda ogohlantiradiki, iqtisodiyotda norasmiy bandlik va yashirin daromadlar mavjud bo‘lgan sharoitda, sof Yevropacha model rasman ishsiz yoki minimal maosh oluvchi, lekin norasmiy

ravishda yuqori boylikka ega bo‘lgan shaxslar (masalan, yashirin tadbirkorlar yoki korrupsionerlar) foydasiga ishlab ketishi mumkin. Bu esa jazoning “kara” va tiyib turuvchi ta’sirini yo‘qqa chiqaradi.

Milliy jinoyat-huquqiy doktrina va sud amaliyotidagi ushbu muammolarni (professor M.H.Rustambayev va R.Kabulov, N.Salayevlarning yondashuvlarini) tanqid baholagan holda, milliy qonunchilik uchun aralash — “Minimal kafolatlangan kunlik ekvivalent” modelini kiritishni taklif etamiz. Ushbu mualliflik modeliga ko‘ra, O‘zbekiston Jinoyat kodeksida jarima jazosining minimal chegarasi jamiyatdagi ijtimoiy adolatni ta’minlash uchun BHM baravarida qat’iy belgilanishi (kafolatlanishi) lozim, biroq uning yuqori chegarasi Maxsus qism sanksiyasi doirasida shaxsning real (norasmiy va rasmiy) daromadlari hamda mulkiy ahvolidan kelib chiqib, kunlik baholash tizimiga bog‘lanishi shart. Bu yondashuv yangilash penalizatsiyani oldini olish bilan birga, iqtisodiy jinoyatchilarga nisbatan jazoning mutanosibligini ta’minlaydi.

Anglo-sakson huquqiy tizimida, xususan AQSH Federal jazo tayinlash yo‘riqnomalari (US Federal Sentencing Guidelines) va Singapurning Kompaniyalar to‘g‘risidagi qonuni (Companies Act) doirasida muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi sof jinoiy kodeks chegarasidan chiqib, keng qamrovli “Korporativ taqiq” (Corporate ban / Disqualification) maqomini olgan.

AQSH va Singapur tizimining eng ijobiy jihati shundaki, agar shaxs moliyaviy yoki boshqaruv tizimida jinoyat sodir etsa, sud uni muayyan lavozim nomidan (masalan, bosh hisobchilikdan) emas, balki har qanday yuridik shaxs tarkibida direktor bo‘lish, fidutsiar (ishonchli vakil) vazifasini bajarish yoki moliyaviy qarorlar qabul qilish huquqidan mutlaq mahrum qiladi. Agar shaxs ushbu taqiqni buzib, boshqa firmaga oddiy “konsultant” yoki “maslahatchi” bo‘lib kirib, amalda firma pullarini boshqarsa (tenevoy direktor sifatida faoliyat yuritisa), bu qilmish ushbu huquqiy tizimlarda mustaqil jinoiy qilmish sifatida baholanib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Xalqaro qiyosiy huquqshunoslik doirasida (masalan, professor A.V.Serebrennikova tadqiqotlarida) ushbu tizim jazo ijrosini ta’minlashning eng maqbul modeli sifatida e’tirof etiladi. Biz ushbu konseptual yondashuvni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish tarafdorimiz. Milliy sud amaliyotida (professor M.H.Rustambayev asarlarida bayon etilgan jazoni individuallashtirish tamoyillari asosida) mahkumlarning lavozim nomini o‘zgartirib, o‘zining kriminal-boshqaruv faoliyatini yashirin davom ettirishiga chek qo‘yish uchun AQSH va Singapurning ushbu “funktional taqiq” nazariyasi konseptual yechim hisoblanadi. Shu sababli, O‘zbekiston Jinoyat kodeksining 45-moddasida taqiq predmeti sifatida sof lavozimni emas, balki aniq yuridik va moliyaviy funksiyalarni cheklashni mustahkamlash lozim».

Buyuk Britaniyada “Jinoiy odil sudlov to‘g‘risida”gi qonun (Criminal Justice Act) asosida majburiy jamoat ishlari sof jismoniy bepul mehnatdan iborat emas, balki u kompleks “Jamoatchilik buyrug‘i” (Community Order) tizimi tarkibiga kiradi. Britaniya modelining o‘ziga xos innovatsion jihati shundaki, sud mahkumga jamiyat foydasiga bepul mehnat (Unpaid work) tayinlash bilan bir vaqtda, uning zimmasiga majburiy ravishda “Kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish” (Activity Requirement) yoki “Xulq-atvorni ijobiy o‘zgartirish dasturi” (Reabilitatsiya) kurslarida qatnashish majburiyatini yuklaydi. Mahkum mahalliy

ijtimoiy obyektida bepul ishlash bilan birga, o‘z kasbini rivojlantirish yoki kriminal fikrlashdan voz kechish bo‘yicha psixologlar va ijtimoiy xodimlar bilan ishlaydi.

Xalqaro penologiyada (xususan, xorijlik olimlar V.A.Utkinva N.V.Olxoviklarning tadqiqotlarida) Buyuk Britaniyaning ushbu tizimi yuqori baholansa-da, uni MDH makoniga ko‘chirishda moddiy va tashkiliy infratuzilmaning yetishmasligi asosiy to‘siq sifatida ko‘rsatiladi.

Biz ushbu cheklab turuvchi yondashuvlarni tanqidiy baholagan holda, O‘zbekistonning bugungi raqamlashtirish salohiyati va Probatsiya xizmatining institutsional rivojlanishi Buyuk Britaniyaning ushbu modelini mahalliy darajada muvaffaqiyatli joriy etishga to‘liq imkon beradi, deb hisoblaymiz. Buning uchun milliy qonunchilikda majburiy jamoat ishlarini sof jismoniy kommunal mehnatdan “Ijtimoiy mehnat va mahalla reabilitatsiyasi” kompleks modeliga transformatsiya qilish lozim. Ushbu mualliflik modeliga ko‘ra, mahkum mahalla hududidagi ijtimoiy obyektlarni obodonlashtirish bilan bir vaqtda, Probatsiya xizmatining raqamli monitoringi ostida mahalladagi ijtimoiy-psixologik ko‘maklashish markazlari tomonidan tashkil etiladigan majburiy kasb-hunarga o‘qitish va reabilitatsiya dasturlariga jalb etilishi shart. Bu esa jazoning sozidaviy kuchini oshiradi va retsdiv jinoyatchilikning oldini olishga xizmat qiladi.

Xorij tajribasi asosida O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining insonparvarlik va odillik tamoyillarini kuchaytirish hamda muqobil jazolar samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi o‘zgartishlar taklif etiladi:

JKning 44-moddasiga o‘zgartish kiritish: Fransiya va Germaniya tajribasi asosida, jinoyat natijasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri moddiy zarar ko‘rilmagan, lekin shaxsiy xususiyatga ega jinoyatlar bo‘yicha jarima tizimini BHM baravaridan mahkumning oylik sof daromadining ulushi (kunlik baholash tizimi) formatiga o‘tkazish tartibi qonunan mustahkamlansin.

Jarimani moddiy zarar ko‘rilmagan, shaxsiy xususiyatga ega jinoyatlar (tuhmat, haqorat) uchun qo‘llash lozim. Sababi, iqtisodiy jinoyatlarda (masalan, o‘zlashtirish yoki firibgarlikda) jarima baribir yetkazilgan zararga kratno (karrali) hisoblanishi shart. Ammo shaxsga qarshi kichik jinoyatlarda bu tizim kam ta‘minlangan fuqarolarni to‘lay olmaslik oqibatida qamoqqa tushib qolishdan (yanglish penalizatsiyadan) asraydi, boy shaxslar uchun esa jazoning ta‘sir kuchini real saqlab qoladi.

Taklif normativ shakli:

JKning 44-moddasi uchinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mahkum jarimani qonunda belgilangan muddatda ixtiyoriy ravishda to‘lashdan bo‘yin tovlagan taqdirda, undirilmagan jarimaning qolgan qismi sud tomonidan majburiy jamoat ishlari yoki ozodlikni cheklash jazosiga almashtiriladi. Bunda majburiy jamoat ishlarining uch soati yoki ozodlikni cheklashning bir kuni bazaviy hisoblash miqdorining bir baravariga tenglashtirilib hisoblanadi. Mahkumning real iqtisodiy nochorligi, tayinli daromadi va mulki yo‘qligi sababli jarimani to‘lash imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, jarima jazosini ozodlikdan mahrum qilish jazosiga almashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi”.

JKning 44-moddasi quyidagi mazmundagi to‘rtinchi qism bilan to‘ldirilsin:

“Mulkiy zarar yetkazish bilan bog‘liq bo‘lmagan, shaxsning qadr-qimmati yoki jamoat tartibiga qarshi qaratilgan jinoyatlar uchun jarima jazosini tayinlashda, sud aybdorning rasmiy

daromadi va mulkiy holatidan kelib chiqib, jarima miqdorini mahkumning bir oylikdan bir yilgacha bo‘lgan sof daromadining muayyan ulushi formatida (kunlik baho tizimida) belgilashga haqli. Bunda kunlik bahoning minimal miqdori qonun hujjatlarida belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining ulushlaridan kam bo‘lishi mumkin emas”.

JKning 45-moddasi birinchi qismidagi “muayyan lavozimlarni egallash” so‘zlari AQSH va Singapurning ilg‘or korporativ taqiq tajribasi asosida “muayyan yuridik, tashkiliy-boshqaruv va moddiy-hujjatlik funksiyalarini bajarish” so‘zlariga almashtirilsin hamda ushbu sud taqiqini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik choralari kuchaytirilsin.

Taklif qilingan “muayyan yuridik, tashkiliy-boshqaruv va moddiy-hujjatlik funksiyalarini bajarish” formulasi Jinoyat kodeksi

45-moddasi matniga ideal darajada mos tushadi. Bu norma mahkumning davlat xizmatidan xususiy sektorga “maslahatchi” yoki “konsultant” niqobi ostida o‘tib, amalda yashirin ravishda (tenevoy direktor sifatida) moliyaviy va tashkiliy qarorlar qabul qilishda davom etishiga huquqiy to‘siq (blok) qo‘yadi.

Taklif normativ shakli:

JKning 45-moddasi birinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Muayyan huquqdan mahrum qilish — aybdorning korxonalar, muassasalar yoki tashkilotlarda (ularning tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’iy nazar) ma’lum bir lavozimlarni egallashini yoki yuridik, tashkiliy-boshqaruv va ma’muriy-xo‘jalik funksiyalarini (shu jumladan pul mablag‘lari va moddiy boyliklarni taqsimlash, moliyaviy hujjatlarga imzo qo‘yish va vakillik vakolatlarini) amalga oshirishini, shuningdek, muayyan faoliyat turi bilan shug‘ullanishini taqiqlashdan iboratdir”.

JKning 45-moddasi quyidagi mazmundagi yettinchi qism bilan to‘ldirilsin:

“Mahkum tomonidan hukmda belgilangan tashkiliy-boshqaruv yoki ma’muriy-xo‘jalik funksiyalarini boshqa lavozim nomlari ostida (maslahatchi, ekspert, ishonchli vakil sifatida) amalda bajarish orqali sud taqiqini qasddan buzish, ushbu Kodeksning tegishli moddasiga muvofiq mustaqil jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi”.

JKning 45-1-moddasi mazmuniga Buyuk Britaniyaning Community Order modeli prinsiplari implementatsiya qilinsin va majburiy jamoat ishlari jazosi tarkibiga mahkumni sof jismoniy mehnatdan tashqari, Probatsiya xizmati nazorati ostida ijtimoiy-psixologlar tomonidan o‘tiladigan “Majburiy rehabilitatsiya va deviant xulq-atvorni tuzatish kurslari”ga qonuniy tarzda jalb etish majburiyati singdirilsin».

Majburiy jamoat ishlarini (45-1-modda) nafaqat ko‘cha supirish yoki hududlarni obodonlashtirish kabi sof mexanik mehnatdan iborat qilish, balki uning tarkibiga “Majburiy rehabilitatsiya va deviant xulq-atvorni tuzatish kurslari»ni majburiy komponent sifatida singdirish — Probatsiya xizmatining ijtimoiylashtirish funksiyasini tubdan o‘zgartiradi. Bu mahkumning nafaqat jismoniy vaqtini olish, balki uning ongi va deviant xulq-atvori (ichkilikka, tajovuzkorlikka moyilligi) bilan psixologlar darajasida ishlash imkonini beradi va retsidivni keskin kamaytiradi.

JKning 45-1-modda quyidagi mazmundagi beshinchi qism bilan to‘ldirilsin:

“Sud tomonidan majburiy jamoat ishlari jazosini tayinlashda, mahkum zimmasiga jamiyat foydasiga bepul jismoniy mehnat bajarish bilan bir vaqtda, uning ijtimoiylashuvini

ta’minlash maqsadida Probatsiya xizmati huzurida sutkasiga 2 soatdan ko‘p bo‘lmagan muddatga majburiy psixologik rehabilitatsiya, kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish va deviant xulq-atvorni tuzatish kurslarida qatnashish majburiyati yuklanishi mumkin. Ushbu kurslarda qatnashish soatlari majburiy jamoat ishlarining umumiy muddati tarkibiga singdiriladi”.

Xulosa. Jarima jazosini tayinlashda mahkumning real to‘lov qobiliyati xolis baholanmasligi natijasida yuzaga keluvchi «qamoqqa majburiy almashtirish zanjiri» mavjud bo‘lib, uni bartaraf etish uchun iqtisodiy imkoniyatsizlik holatida jazoni qamoqqa emas, balki majburiy jamoat ishlariga avtomatik o‘tkazish tizimi zarur.

Muayyan huquqdan mahrum qilish jazosini tayinlashdagi yuridik bo‘shliq — taqiqlarning sof rasmiy lavozim nomiga qaratilgan, uning o‘rniga mahkumning kriminal maqsadlarda foydalanishi mumkin bo‘lgan “tashkiliy-boshqaruv funksiyalarini” cheklash (kasbiy funktsiya ekvivalentligi) nazariyasi ilgari suriladi.

Majburiy jamoat ishlari jazosini sudlar tomonidan kam qo‘llanilishining bosh determinanti tashkiliy-infratuzilmaviy bo‘shliq ekanligi tufayli, ushbu jazoni tayinlashning majburiy ustuvorligini ta’minlovchi “Munitsipal raqamli kvotalash” modeli ilgari suriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2025. – 428 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2025. – 312 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.
4. Rustamboyev M.X. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi. Umumiy qism. – Toshkent: ILM ZIYO, 2018. – 528 b.
5. Rustamboyev M.X. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi. Maxsus qism. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2019. – 684 b.
6. Inog‘omjonov Z.M. Jinoyat-ijroiya huquqi. – Toshkent: TDYU, 2022. – 356 b.
7. United Nations Standard Minimum Rules for Non-custodial Measures (The Tokyo Rules). – New York: United Nations, 1990. – 48 p.
8. United Nations Office on Drugs and Crime. Handbook of Basic Principles and Promising Practices on Alternatives to Imprisonment. – Vienna: UNODC, 2018. – 128 p.
9. Tonry M. Sentencing Matters. – New York: Oxford University Press, 1996. – 272 p.
10. Ashworth A. Sentencing and Criminal Justice. – 7th ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2021. – 560 p.